

**CHARLZ DIKKENS “DEVID KOPPERIFILD “ VA G’AFUR G’ULOMNING “SHUM BOLA”
ASARLARIDA BOLALIK VA SHAXS SHAKLLANISHI**

Quvvatova K.R.¹

Ilmiy rahbar: Tolibov M.M.

Annotatsiya:

Ushbu maqola jahon adabiyotshunosi XIX-asrning eng mashhur ingliz yozuvchilaridan biri Charlz Dikkensning qalamiga mansub "Devid Kopperifild" romani hamda taniqli o'zbek adabiyotshunosi, yozuvchisi va shoiri G'afur G'ulom tomonidan yaratilgan avtobiografik ruhdagi "Shum bola" qissasi o'rtasidagi bog'liqliklilar, psixologik tahlil kabi ma'lumotlarni ikki asar qahramonlari xarakteri orqali yorqin jihatlarini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: qiyosiy tahlil, shaxs shakllanishi, yetimlik motivi, bolalik psixologiyasi obrazlar tizimi, ruhiy evolyutsiya, ijtimoiy muhit, badiiy talqin, xarakter tipologiyasi.

Hamamizga ma'lumki, adabiyot inson qalbining tili, ruhiyatining in'ikosi sifatida qadimdan tarbiyaviy estetik va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan san'at turidir. Jahon va o'zbek adabiyotida bolalik, yetimlik va shaxs shakllanishi mavzusi ko'plab asarlarda markaziy badiiy muommo sifatida talqin etilgan. Bu jihatdan, o'zbek adibi G'afur G'ulom tomonidan yaratilgan "Shum Bola" va ingliz yozuvchisi Charlz Dikkensning "Devid Kopperifild" asarlari turli madaniy muhitda yaratilgan bo'lsada, har ikki asar asosiy qahramonlari qiyin sharoitda o'sgan yetim bolalarning hayot yo'li, ijtimoiy moslashuvi va o'smirlik davridagi sarguzashtlarini badiiy va sarguzashtli ruhda tasvirlab bergan avtobiografik xarakterdagi asarlar hisoblanadi. Shu jihatdan ushbu ikki adabiyot durdonalari o'quvchilarning dunyoqarashi, estetik qobiliyatlari va ichki madaniyatini rivojlantirishda muhim kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi, ushbu asarlarda bosh qahramonlarning ruhiy shakllanish jarayonini qiyosiy tahlil qilish, xususan, ular boshidan kechirgan o'xshash hayotiy sinovlar, hamda obrazlar tizimi orqali xarakter ochilish mexanizmini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida qahramonlarning ichki kechinmalari, ijtimoiy muhit ta'siri hamda ona va do'st obrazlarining psixologik o'rni va ta'siri o'zaro taqqoslab yoritiladi. Yozuvchilar hayoti va ijodi: O'zbek adabiyotining mashhur namoyondalaridan biri G'afur G'ulom 1903-yil 10-mayda Toshkent shahrida tavallud topgan. To'qqiz yoshida otasidan, oradan olti yil o'tar o'tmas, o'n besh yoshida onadan onadan ham ayriladilar. Ukalari va singillari bilan yolg'iz qolgan adib oilani boqish uchun kosiblik, mixkorlik, aravakashlik qiladi. Adib avval bashlang'ich makdabda, keyingi yillarda esa, o'sha paytda urf bo'la boshlagan rus-tuzem maktabida tahsil olgan, maktabni ham bitirgach muallimlar tayyorlaydigan kursni bitirib, avval o'qituvchilik, so'ng jurnalistlik qildi. G'afur G'ulomning ayni o'ynab-kuladigan betashvish kechirishi lozim bo'lgan bolalik onlari 1914-197-yillarga, ya'ni murakkab tarixiy davr, Birinchi jahon urushi yillariga to'g'ri keladi. Garchi urush bizning yurtimizdan uziqda, olis Yevropada kechsada, uning sovuq nafasi bizning o'lkamizni ham qamrab olgan edi. Bunga qo'shimcha, yurtimizni bosib olgan chor Rossiyasi hukmronligi bizning o'lkamizda oddiy xalq o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan mahrum etdi, qo'lidan ish keladigan kishilarni majburan urush ortidagi og'ir qora ishlarni bajartirish uchun olib ketar edi Natijada esa, tor ko'chalarda chang bosgan hovlilar, tez-tez qarovsiz bolalarni uchratish mumkin edi. Adib o'z ijodi davomida mamlakatni va jamiyatni himoya qilish to'g'risidagi tantanavor she'rlari, o'tmish sarqitlarini qoralovchi hajviya va qissalari oddiy xalqning kundalik ijodiy mehnatini olqishlovchi mavzulardan iborat bo'lgan asarlarni yaratdi. Ota-onasidan yosh yetim qolgan adib boshiga

¹ Quvvatova Kamola Rustam qizi, SamDCHTI Sharq tillari fakulteti 2-bosqich talabasi

juda ko'p ko'rguliklar tushadi. Yozuvchi mana shunday musibat va qiyinchiliklarga to'la kunlarni o'z boshidan o'tkazar ekan, bolalik tasavvurida bu musibat va ko'rguliklar uzoq muddatga muhrlanib qolmasligi hamda qalbini larzaga solmasligi mumkin emas edi, albatta. Keyinchalik, 1936-yilda yozuvchi ushbu o'tmish xotiralarini xayolida qayta jonlantiradi va o'zining mashhur "Shum bola" qissasini yaratadi, 60-yillarda adib uni qaytadan ishladi, yanada sayqalladi. Yozuvchi, "Shum bola" asarini yaratganida, u shunchaki bir bolaning sarguzashtlarini yozishni maqsad qilmagan edi, bu hajviy ruhdagi qissaning ortida chuqur falsafiy, psixologik yondashuvni kuzatishimiz mumkin, hamda yozuvchining yuragida yillar davomida yig'ilib kelgan og'riqlar, xotiralar va hayot sinovlarining badiiy aks-sadosini mohirona tasvirlab berganining guvohi bo'lamiz. Ayni paytda, asarning yaratilishining bevosita guvohi bo'lgan adibning iste'dodli shogirdi taniqli o'zbek adibi Said Ahmad o'zining "Yo'qotganlarim va topganlarim" nomli xotiralar kitobida quyidagilarni yozib o'tadi: "Shum bola" ning uchinchi qismi yozilayotganda men G'afur akaning yonida edim, qissani tezroq yozdirish uchun "Mushtum"dan meni G'afur akaning uyiga "komandirovka" qilishgan edi. Uyiga borganimda G'afur aka yo'q, qo'lyozma stol ustida taxlangancha turardi. G'afur aka menga qo'lyozmasini ishonardi. Chunki arab alifbosini bilganim uchun uning bir nechta she'r va hikoyalarini mashinistkalariga diktovka qilganman. Stol ustidagi qo'lyozmalarni varaqlay boshladim. Shuni ham aytib qo'yayki, jurnalimiz qissani bitmayoq e'lon qila boshlagan edi. G'afur aka navbatdagi boblarni peshma-pesh keltirib turar edi. Biron sabab bo'lib G'afur aka komandirovkaga ketib qolsa, jurnalxonlar oldida xijolat bo'lib qolishdan qo'rqar edik. Shuning uchun ham G'afur akani hol-joniga qo'yim saharlab uyiga borar edim. Men borganimda qissa oxirlab qolgan edi, shum bola Toshkentga qaytib Ko'sa Maddoh hikoyalarini tinglab turgan paytda to'xtagan edi. Domla Shoahmad akani kuzatgani chiqib ketgan ekanlar. Kelib sal xijolat chekkandek bo'ldilar. - Bitkaza olmadik, ukajon, nima qilsang qil, voy degan nomard!

-Shu bugun olib ketmasam, meni "Mushtum"dan haydab yuborishadi.

Domla ko'chaga chiqib ketish uchun o'zini u yoq-bu yoqqa tashlab bahonalar qidira boshladilar. Ammo eplolmadi. Oxiri o'tirdi.

-Bo'пти. Shu bugun "Shum bola"ga nuqta qo'yib berman. Sen chiqib Eski Jo'vadan bitta "Kazbek" olib kelib ber. Men yozib turaman.

G'afur aka meni ishga buyurib, qochib qolishini bilib turibman. Muharram opa: "Hushyor bo'ling, akangiz Mirza Abdulla aka bilan 66allaqayoqqa ketishmoqchi" - deb aytib qo'ygan edi. Nima qilishimni bilmay qoldim. Hovliga chiqsam, Jo'raxon shimini cho'tkalayotgan ekan.

-Jon uka, bitta papiros olib kelib bering,- deb yalindim. Jo'raxon pulni olib zing'illagancha ketdi. Shunday qilib asar ham bitib qoldi. Aslida G'afur akaning ish stoliga otirishi qiyin edi avvaliga biz ularni ko'ziga xirapashshadek korinar ammo keyin esa raxmat aytib qolar edilar. [6-sinf adabiyot darsligi, 2017-yil 4-nashri, 12-13-betlar] "Shum bola" qissasi bosh qahramonning ya'ni Qoravoyning og'ir, ammo harakat va sarguzashtga boy davrini tasvirlash bilan boshlanadi. Qoravoy hali yosh bo'lishiga qaramasdan, hayot maktabi uni erta ulg'ayishga majbur qilgan. Qoravoyning uyi bor edi, ammo bu uyda tinchlik yo'q, ochlik va muhtojlik, yetishmovchilik uning bolalik kunlariga soya solar edi. U o'z onasini xafa qilib qo'yganidan xijolat tortib, qolaversa mehnat qilib pul topib kelish ilinjida o'z taqdirini o'zi izlashga majbur bo'lib yo'lga tushadi. Onasining mehribonligi uning qalbiga taskin berar, ammo bu mehr hayotning barcha qiyinchiliklarini yengishga yetarli emas edi. Aynan mana shu vaqt mobaynida, Shum bola bir-biridan qiziq voqealar ishtirokchisiga aylanadi, turli joylarga boradi, hamda turli xil sinovlarni boshidan kechiradi. Har bir yangi joy unga hayotning yangi bir qirrasini ochib beradi. Shum bolaning sarguzashtidagi eng muhim uchrashuvlaridan biri - bu do'sti Omon bilan tanishuvi edi. Do'sti Omon ham o'ziga o'xshagan, hayot sinovlariga duch kelgan, ko'chalar changini yutib ulg'aygan bolalar qatoridan edi. Ular ilk bor uchrashganlarida, bir-birining qalbidagi og'riqni darhol his qiladilar, bir-birida o'z taqdirining aksini ko'radilar. Omon shum bolaga bu shafqatsiz hayotda qanday yashashni, kimga ishonish kimdan ehtiyot bo'lishni o'rgatadi. Shum bola ko'chalarda yurib, turli xil insonlarga duch keladi, turli xil xizmatlarni bajaradi, ba'zan och

qoladi, ba'zan esa yaxshilikka duch keladi, ba'zan esa kattalarning qo'pol muomalasiga duch keladi. O'zlarini go'yo yetim boshini silaydigan himmatli kishilar qilib ko'rsatadigan turli noinsaf kimsalar, xususan, yuzlab qalandarlarga yo'lboshchilik qilib, har gapida qayta-qayta Xudoni tilga oladigan Eshon, Shum bolani og'rilik qilishga yo'llaydi, Eshonning bu ishlari, uning naqadar tuban inson ekanidan dalolatdir. Shu o'rinda shum bola hayotining yana bir muhim sarguzashtlaridan biri bu, Sariboy bo'lis bilan uchrashuvi edi. Bu uchrashuv tasodif bo'lib, Shum bola tirikchilik qilish ilinjida ish izlab, qishloqdagi katta yer egasi Sariboy bo'lisning yoniga, xizmatiga kelib qoladi. Sariboy bo'lis o'ta ziqna, birovlarining dard-u tashvishi, dunyo g'ami bilan ishi yo'q kimsa bo'ladi. Shum bola Sariboyning hovlisida uning ochko'zligini, xizmatkorlarga bo'lgan sovuq munosabatini o'z ko'zlari bilan ko'radi. Ammo Shum bola, ziqna va laqma bo'yni xarakterini tushunib yetadi va o'zining topqirligi bilan uni "mot qilish" yo'lini topadi. Shu paytgacha qadar bu ziqna bo'yni odam bolasi teng kela olmagan, uning qo'lida xizmat qiluvchilarning dardi ichida, bu odamga ro'para kelishdan ham cho'chib yurishadi. U Sariboy bo'lisni uncha-muncha gap bilan lol qoldirib bo'lmasligini anglagach, o'zining topqirligi yordamida ezma bo'yni adabini beradi. "Dandon sopli pichoq"ning sinishi bilan boshlangan gap kenjatoy o'g'li Bo'ri boyvachchaning "terakdan yiqilib o'lishi" bilan tugaydi, hamda shu to'g'risidagi gaplar Sariboyni, yiqitadi. Yozuvchi "Shum bola" qissasi orqali butun bir davr ijtimoiy haqiqatlari, insoniy mehr va adolatsizliklarni tasvirlab beradi.

Taniqli ingliz yozuvchisi Charlz John Huffam Dikkens 7-fevral 1812-yilda Angliyada tavallud topgan, hamda o'z faoliyatini 1833-yilda boshlagan. U sakkiz farzandli oilada eng kichigi bo'lgan. Uning otasi moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan, va uning bolaligi qashhoqlik va otasining qarz tufayli qamalishi bilan kechgan, qolaversa u ushbu tajriba va qiyinchiliklarini uning ijtimoiy mavzudagi asarlari "Oliver Tvist" hamda "Devid Kopperfeld" asarlarida yaqqol aks ettirgan. Mehnatkash xalqning og'ir axvoli Dikkens ijodining bosh mavzusi bo'lgan. Dikkens tanqidiy realism uslubining asoschilaridan biri hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlaganimdek, adibning hajviy-sentimental ruhda yozilgan "OliverTwist" sarguzashtlari, qolaversa tarjimai hol yo'sindagi "David Copperfield" romani uni dunyoga mashhur qildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Dikkens asarlarida umuman oddiy kishilar qiyofasi mahorat bilan aks etiladi. Dikkens jamiyatni ijtimoiy inqirozdan olib chiqish yo'llarini badiiy vositalar yordamida tasvirlaydi. Yozuvchi Angliyaning sanoat inqilobi va ulkan ijtimoiy o'zgarishlar davri bo'lgan Viktoriya davrida yashab ijod qilgan. Angliyani "Queen Victoria" boshqarganligi sababli shu nom bilan atalgan. Viktoriya davri bu, rivojlanish, ziddiyatlar davri edi. Mana shunday bir qiyin davrda, yashab ijod qilgan Charlz Dikkens oilaviy muommolarga duch kelgach, 12 yoshida maktabni tashlab, poyabzal kremi zavodida ishlashga majbur bo'lgan. Charlz Dikkens o'zining "Devid Kopperfeld" asarini juda alohida qadrlagan hamda o'zining eng sevimli asari deb hisoblagan. Dikkens ushbu asar haqida juda mashhur va samimiy fikr bildirgan : "mening barcha kitoblarim orasida eng yaxshi ko'rganim shu. Ota-onalarga o'xshab, mening ham yuragimda eng sevimli farzandim bor. Uning nomi- Devid Kopperfeld. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, ko'plab taniqli va mashhur yozuvchilar Dikkens ijod namunalarini qadrlagan. Shular jumlasidan, Buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy, Dikkensni o'zining sevimli yozuvchilaridan biri deb bilgan hamda, u haqida shunday degan : "Dikkens inson ruhiyatini tasvirlashda tengsiz yozuvchidir". Shu jumladan, Tolstoy Devid obrazini juda tabiiy va real deb hisoblagan, uning fikricha, asarda insonning ichki dunyosi, bolalikdagi ruhiy jarohatlar juda haqqoniy tarzda tasvirlangan. "Devid Kopperfeld" asari 1849-yildan 1850-yilgacha yozilgan, hamda "Monthly Serial" jurnalida chop etilgan. Roman 1812-yillarda, Devidning tug'ilishi bilan boshlanadi, ya'ni u hayotga kelgan paytida o'z otasi vafot etgan va onasi keyinchalik uning o'gay otasi ya'ni Janob Murdston bilan turmush qurgan voqealari aks etadi. Bu yangi turmush o'g'lining hayotini qattiq sinovlarga soladi. Janob Murdston juda qattiqqo'l, keskin, shavqatsiz inson sifatida tasvirlangan, shu nuqtai nazardan, Devidning bolalik quvonchlarini bosib o'tgan holda, unga hayotning qattiq, achchiq hamda adolatsiz tomonini ko'rsatadi. Devidning onasi Klara esa zaif, ishonuvchan, muloyim va mehribon inson sifatida tasvirlangan bo'lib, Devidni himoya qilishga ko'p bora harakat qiladi, garchi shunday bo'lsada shavqatsiz Janob

Murdston ta'siriga tushib qoladi. Devid "Salem House" nomli maktabga yuboriladi, bu voqea uning o'gay otasi Janob Murdston tomonidan jazolangandan so'ng, hamda oiladagi muhit keskinlashgan paytda yuboriladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, maktabga yuborilish, jazoga o'xshash qaror bo'lib Devid o'zini yolg'iz va tashlab qo'yilgandek, keraksizdek hiq ilishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birgalikda, Devid "Salem House" maktabida Stirfort bilan uchrashadi, va bu uchrashuv Devid uchun juda muhim burilish nuqtasi sanaladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, har ikkala asarda ham yetim bolalar taqdiri aks ettiriladi. Biroq shunga qaramasdan, qahramonlar xarakterida muhim psixologik, ijtimoiy, tarixiy-siyosiy hamda badiiy mezonlar bo'yicha farqlarni kuzatishimiz mumkin. "Shum bola" qissasidagi bosh qahramon Qoravoy hayot sinovlariga chaqqonlik, hazilkashlik va epchillik orqali moslashadi. Uning mana shunday sho'x tabiati topqirliqi qaysidur ma'noda og'ir sharoitlarda yashab qolish vositasiga aylanadi desak adashmagan bo'lamiz. Bundan tashqari "David Copperfield" romanida esa bosh qahramonning ruhiy kechinmalari chuqurroq va dramatik tarzda tasvirlanadi. Devid ko'proq o'z ichki olamida, ichki iztirob, mehrga tashnalik va sezgirlik orqali shakllanadi. Devid hayotdagi sinovlar-oilaviy muommolar, zo'ravonlik va yolg'izlik hissi-uning xarakterida sezgirlik, chuqur mushohada va ma'naviy o'sishga intilish kabi sifatlarni shakllantiradi. U boshidan kechirgan iztiroblarni ichki tahlil orqali yengib, asta-sekin hayotga ongli munosabat bildiradigan shaxsga aylanadi. Demak, qiyinchiliklar uning ruhiy olamini tenglashtiruvchi tajriba vazifasini bajaradi. Shum bola ya'ni Qoravoy esa shunga o'xshash og'ir hayotiy vaziyatlarda boshqa ruhiy strategiyasini tanlaydi. Qashshoqlik va beparvolik muhitida ulg'aygan qahramon epchillik, hazilkashlik va topqirlik orqali o'zini himoya qiladi. Uning sho'x beparvolik muhitida ulg'aygan ko'rinishi aslida hayot zarbalariga moslashishning psixologik shakli bo'lib, bu jarayon qahramonni amaliy tajribaga boy, hayotiy qarashlari mustahkam shaxs sifatida shakllantiradi. Qo'shimcha qilib o'tishimiz joizki, Devid bolaligidayoq ishlashga majbur bo'lib, og'ir mehnat va ijtimoiy pastlik hissini boshidan kechiradi. Bu jarayon uning o'z qadrini anglashiga, sabr-toqat va maqsad sari intilish, ichki izlanish va ma'naviy yetilish jarayonini va sifatlarini shakllantirishiga olib keladi. Shu jumladan, Qoravoy ham ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik kattalarning bepisand qarashlari hamda qo'pol muomalasiga duch keladi, garchi bu holatlar juda xunuk eshitilsada bunday sinovlar ikki asar qahramonlari uchun ham katta hayot sabog'i vazifasini bajaradi. Qoravoy ham ko'cha hayoti va turli yumushlar orqali erta mustaqil bo'lishga majbur bo'ladi. U uchun erta mehnat va tirikchilik tashvishlari hayotining tabiiy qismi sifatida qabul qiladi. Hayot unga uloqtirgan sinov va qiyinchiliklarini, og'ir vaziyatlarni jiddiy iztirob emas, balki tajriba maktabi sifatida qabul qilib, vaziyatga tez moslashish qobiliyatini o'zida rivojlantiradi. Shunday qilib, ikki qahramon bir xil hayotiy sharoit, jumladan yetimlik, bolalikdagi himoyasizlik, erta mustaqillik, mehnat qilish majburiyati va turli xil qiyinchiliklarni boshidan kechirsada, ularning ushbu qiyinchiliklarga nisbatan ruhiy javobi turlicha kechadi. Biz ushbu yqorida ta'kidlab o'tilgan farqlarni milliy muhit, ijtimoiy sharoit hamda muallifning badiiy uslubi bilan bog'lasak to'g'riroq bo'ladi deb o'ylayman. Yetimlik va hayot sinovlari motivi Devid Kopperfild hamda shum bola asarlarida qahramonlarning ruhiy shakllanish jarayonini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Har ikki asarda bosh qahramonlar bolalik davridayoq mehr-muhabbat yetishmovchiligi, moddiy qiyinchiliklar va ijtimoiy beqarorlik bilan yuzlashadi. Shu nuqtai nazardan, badiiy asarda qahramon xarakteririni ochish faqat uning individual kechinmalari orqali emas, balki u bilan bog'liq obrazlar tizimi orqali ham amalga oshirilganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, ona va do'st obrazlari har ikki asarda qahramon ruhiy dunyosining shakllanishida boshlangich hamda psixologik zamin vazifasini bajaradi hamda qahramonlarni erta mustaqil bo'lishiga undaydi. Mehribo, sodda va ba'zan himoyasiz ona timsoli, ona mehrining yetishmasligi qahramonlarda erta mas'uliyat hissi paydo bo'lishga hamda erta mustaqil bo'lishiga turtki bo'ladi. Devid Kopperfild asarida Devidning onasi sodda muloyim mehribon va ishonuvchan xarakterga ega, hamda himoyasiz ona timsoli sifatida tasvirlanadi hamda qahramonda ya'ni Devidda erta mas'uliyat, ichki sezgirlik va himoya qilish istagini yanada kuchaytiradi. Asarda Devidning onasi Klara Kopperfild, Devidning ogay otasi, janob murdstonga turmushga chiqadi hamda uning ta'siriga tushib qoladi va Davidni himoya qila olmaydi. tabiiyki ushbu

voqea Devidning ruhiyati shakllanishiga ta'sirini otkazmasdan qolmaydi. Janob Murdston ona va bola munosabatiga katta tasir ko'rsatadi, xususan janob Murdston tomonidan Devidni majburan maktabga yuborilishi, onasi bilan ko'rishishdan mahrum qilinishi qahramon ruhiyati muhim burulish nuqtasi bo'lib xizmat qiladi ya'ni Devidning butun keyingi ichki dunyosiga, xarakteriga va hayotga bo'lgan munosabatiga chuqur iz qoldirgan ruhiy zarbadir. Bolaligidan mehr va xavfsizlikni hamda yaqinlikni onasi tomondan his qilib kelgan Devid uchun bu ajralish kutilmagan zarba hamda og'riqli bo'ladi. O'gay otaning devidga hamda uning onasi klaraga bo'lgan sovuq hamda shavqatsiz munosabati devidda o'zini keraksiz his qilish va onasini himoya qilish tuyg'usin uygotadi ayniqsa hayotni bolalarcha beg'uborlik bilan emas balki og'riq va ehtiyotkorlik bilan qabul qilishga majbur qiladi. Shu bilan birga, maktab muhiti ham bu jarayonni yanada keskinlashtiradi, hamda Devid o'zidan yiroq muhitda yashashga majbur bo'ladi. Natijada u ichki dunyosiga ko'proq berilib ketadi, kuzatuvchanlik, sezgirlik va chuqur oylash qobiliyatlari ham aynan shu ruhiy bosim ostida rivojlanadi. U insonlarning fe'l-atvorini sinchiklab kuzatishni og'riqni ichda saqlashni, sukut orqali har qanday og'riqqa va onasiga bo'lgan so'g'inch hissiga barham berishni o'rganadi. Shu nuqtai nazardan, Shum bola asarida ham ona timsoli ruhiy shakllanishning muhim bosqichi sifatida tasvirlanadi. Qoravoy hayotida ham ona mehrining yetishmasligi va oilaviy beqarorlik uning erta ulg'ayishiga, qahramonning mustaqil va chaqqon bo'lishiga turtki bo'ladi. Asarda shum bolaning onasi aynan ismi keltirilib o'tilmagan bo'lsada, nihoyatda mehribon, sabrli ammo hayotning og'ir sinovlaridan ezilgan ayol sifatida tasvirlanadi. U og'li uchun nafaqat ona, balki yagona tayanch mehr va himoya manbai hisoblanadi. Qoravoyning onasi unga halollik, sabr toqat va hayotga chidam bilan qarashni bilvosita o'rgatadi. Onaning qashshoqlikda ham farzandini tashlab ketmasligi uni o'ylab yashashi ona mehri naqadar kuchli ekanligi Qoravoy qalbida onasiga nisbatan chuqur muhabbat va masuliyat hissini uyg'otadi. Qoravoy uchun eng katta zarba bu onasidan ajralib qolishi bilan sodir bolgan holatdir. Onaning kasalligi nochorligi va oxir oqibat Qoravoyni yolg'iz qoldirilishi ya'ni hayotdan ko'z yumishi shum bolaning ichki dunyosini larzaga soladi. Bu voqea Shum bolaning hayotidagi eng katta muhim burilish nuqtasi bo'lib, u shu paytdan boshlab nafaqat jismonan balki ruhan yetim qoladi, hamda bu burilish unda chuqur bo'shliq, beqarorlik va yolg'izlik tuyg'usini paydo qiladi, hamda hayotning achchiq haqiqatlarini tez va erta anglashga xizmat qiladi. Uning sho'xligi hazillari va hatto, bazan qoidalarni buzishi, ichki og'riqni yashirish, hayotning shavfqatsizligiga qarshi o'ziga xos himoya usuli ekanligini yozuvchi mohirona yoritib beradi. Shu bilan birgalikda har ikkala asarda ham do'stlik obrazlari muhim ahamiyatga egadir. Yuqorida ta'kidlab o'tganimdek, Devid Kopperfeld asaridagi Devidning "Salem house" maktabidagi eng muhim do'sti 'Jeymes Stirfort' hisoblanadi. Ushbu obraz, va do'stlik Devida ruhiyat shakllanishida murakkab va ikki qirrali psixologik ta'sirga ega bo'lgan muhim tajriba sifatida ham namoyon bo'ladi. "Salem House" sovuq, zo'ravonlik hukmron bo'lgan muhit bo'lib onasidan uzoqda ona sog'inchi hamda ana shunday sovuq mehrsiz muhit va sharoitda Stirfort, Devid uchun himoya, kuch va tayanch ramziga aylanadi. U jasur, o'ziga ishongan, so'zlari o'tadigan va boshqalardan ustun turadigan bola bo'lib korinadi. Devid esa hali ham onasidan ajralish holatini boshidan kechiryotgan, ichki va ruhiy jihatdan nozik, himoya va mehrga muhtij edi. Shu sababli, Stirfortga hayrat va ishonch bilan bog'lanadi va uni, o'ziga ideal inson, do'st sifatida qabul qiladi. Psixologik jihatdan, Stirfort Devidning kuchli shaxsga bo'lgan ehtiyojni qondiradi. Devid uning yonida o'zini xavfsizroq his qiladi va yolg'iz emasligini anglaydi. Bu do'stlik devidga vaqtinchalik ruhiy taskin bersa-da, ayni paytda unda ko'r-ko'rona ishonch va haddan tashqari bog'lanish hissini ham shakllantiradi. Devid Stirfortning kamchiliklarini ko'rishni istamaydi uning xatti-harakatlarini oqlashga moyil bo'ladi, bu holat esa Devidning psixologik yetilmaganligini va mehr va himoyaga chanqoq ekanligini ko'rsatadi. Ular bilan bog'liq eng muhim voqealardan biri bu, Stirfortning boshqa o'quvchilarga ayniqsa zaifroq bolalarga nisbatan hukmronlik qilishi va ba'zan shafqatsizlikka yo'l qo'yishidir. Devid buni sezsa ham, do'stini yo'qotishdan qo'rqib ichki noroziligini ochiq ifoda eta olmaydi. Bu esa, shu o'rinda Devid ruhiyatida ichki ziddiyatni kuchaytiradi. Ammo keyinchalik hayot Stritfort obrazining asl qiyofasini ochib beradi. Uning mas'uliyatsizligi boshqalarning taqdiriga

beparvo munosabati va oxir-oqibat fojiali taqdiri Devid uchun kuchli ruhiy zarba bo'ladi. Bu voqea Devidning yetilishida muhim burilish nuqtasiga aylanadi, u odamlarni ideallashtirish xatoligini anglaydi hamda hayotda, kuch emas balki axloqiy barqarorlik muhimligini tushunib yetadi. Shu jumladan, "Shum bola" asarida Qoravoy hayotida muhim o'rin tutgan obrazlaridan biri bu - uning do'sti Omondir. Omon bilan bolgan munosabat va sarguzashtlar Qoravoyning psixologik shakllanishida, hayotga munosabati va odamlarni anglashida muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi. Asarda Omon - hayotning achchiq tomonlarini erta ko'rgan, hushyor, o'z manfaatini o'ylaydigan bola sifatida tasvirlanadi. U Qoravoyga nisbatan ancha amaliy fikrlaydi va vaziyatdan chiqish yo'llarini tez topadi. Omon obrazi Qoravoy uchun ikki xil ta'sir manbai bo'ladi ya'ni bir tomondan, u hayotda tirik qolish uchun ayyorlik va moslashuv zarurligini ko'rsatsa boshqa bir tomondan Qoravoyning hali so'nmgan ishonuvchanligi va samimiyligini sinovdan o'tkazadi. Shum bola Omon birga bo'lganda o'zini yolg'iz his qilmaydi ayniqsa, onasidan ayrilganidan keyingi bo'shliq aynan do'stlik orqali biroz to'ldiradi. Ya'ni Dvidda ham, maktabga yuborilgandan song onasini sog'inadi hamda bu bo'shliqni uning do'sti Jeyms qaysidur ma'noda to'lidirib turadi. Shu o'rinda, ammo, Omonning ba'zan faqat o'z foydasini ko'zlashi Qoravoy qalbida ichki ziddiyat uyg'otadi, u do'stlikni samimiyat va sadoqat deb tushunsa, Omon uchun do'stlik, ko'proq manfaat ustida qurilgan va tirikchilik vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu farqlar esa qoravoyning ruhiy yetilishini tezlashtiradi. Ular bilan bog'liq muhim voqealardan biri Omonning o'z manfaati uchun Qoravoyni yolg'iz qoldirishi yoki undan uzoqlashishidir. Bu holat Qoravoy uchun kuchli ruhiy zarba hamda katta dars bo'lib qoladi. U ilk bor shuni anglaydiki, hayotda hamma ham bir xil darajada sadoqatli emas va ushbu voqea Qoravoyni yanada ehtiyotkor va insonlarni tanlab ishonadigan qilib qo'yadi. Shu o'rinda, yuqorida ma'lumot berib o'tilgan salbiy ruhdagi qahramonlar, "Shum bola" asaridagi Sariboy Bo'lis hamda, "Devid Kopperfild" romanidagi Janob Murdston obrazlari ikki turli madaniy va tarixiy muhitda yaratilgan bo'lsa-da, ularni birlashtirib turuvchi asosiy jihat - bolalar taqdiri va ularning ruhiy olamiga bosim o'tkazuvchi salbiy ijtimoiy kuch timsoli ekanidir. Har ikki obraz orqali, mualliflar jamiyatdagi zo'ravonlik, hokimiyatdan noto'g'ri foydalanish va insoniy munosabatlardagi adolatsizlik hamda shafqatsizlikni badiiy tarzda talqin etadi. Janob Murdston oilaviy muhitdagi depotizm timsoli bo'lib, hamda Sariboy bo'lis, ham Murdston singari intizom va tartib niqobi ostida zo'ravonlikni oqlovchi kimsalardir. Psixologik jihatdan bu ikki obraz qahramonlar ruhiyati shakllanishida qo'rquv va himoyasizlik hissini yuzaga keltiruvchi omil sifatida xizmat qiladi. Ammo bu voqealar har ikkala asar bosh qahramonlariga turlicha psixologik ta'sirini o'tkazadi, ya'ni Sariboy bilan bo'lgan voqealar Qoravoyning ehtiyotkorlik, echillik, vaziyatdan chiqib ketish qobiliyatini kuchaytirsa, boshqa bir tomondan, Janob Murdston bilan bo'lgan voqealar rivoji, Devidning ichki dunyosiga chuqur iz qoldirib, unda yolg'izlik, iztirob va ruhiy qarshilik hissini kuchaytiradi. Natijada, har ikki obraz syujet rivojida katalizator vazifasini bajaradi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, har ikki asarda ham, hayotning eng og'ir zarbalari, yetimlik, ijtimoiy himoyasizlik, va erta mustaqillik bosh qahramonlar ruhiy kamolotining asosiy omili sifatida tasvirlanadi. Biroq, bu jarayonning badiiy talqini va psixologik ifodasi turlicha yo'nalishda rivojlanadi. Devid ruhiy izlanish va ichki kechinmalar orqali ma'naviy yetuklikka erishsa, Qoravoy hayotiy tajriba, epchillik va moslashuvchanlik orqali shakllanadi. Shu o'rinda, bu ikki asar shuni isbotlaydiki, inson xarakteri aynan og'riq, yo'qotish va sinovlar orqali shakllanadi. Shunindек, ona va do'st obrazlari qahramon xarakterini ochishda muhim badiiy vosita bo'lib, ular orqali inson ruhiyatining emotsional va ijtimoiy qatlamlari yoritiladi. Natijada, asarlar turli milliy va tarixiy sharoitda yaratilganiga qaramay, insoniy qadriyatlar, bolalik tajribasi, va hayot sinovlarining shaxs kamolotidagi o'rni umumiy g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Ta'kidlab o'tganimdek, Devid va Qoravoy obrazlari turli muhit turli davr farzandlari bo'lsa-da ularni birlashtiradigan jihat bitta, hayotning shafqatsizligiga qaramasdan, insoniylikni saqlab qolish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "G'afur G'ulom", "Shum bola", "Yoshlar uyi nashriyoti"
2. 6-sinf uchun darslik-majmua, I qism, 4-nashr
3. @akademiklar.uz